

MAKTAB O'QUVCHILARIDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISHDA  
PEDAGOGLARNING O'RNI VA ROLI

Muhammadjonova Feruzaxon Rustamjon qizi

Fag'ona viloyati Furqat tumani 36-maktab  
onatili va adabiyot fani o'qituvchisi o'qituvchisi

Muhammadjonova O'g'iloy Baxodirjon qizi

FarDU Pedagogika va psixologiya fakulteti 1-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, o'quvchilarda ijodkorlik shaklini shakllantirishning pedagogik jihatlari hamda o'quvchi yoshlarda ijodkorlik shaklini shakllantirishda pedagooglarning o'rni va roli hamda yoshlarda ijodkorlikni shakllantirishda foydalaniladigan turli xil metod va usullar haqida keng ma'lumotlar berilib o'tilgan.

**Abstract:** In this article, extensive information is given about the pedagogical aspects of forming the form of creativity in students, the role and role of pedagogues in forming the form of creativity in students, and various methods and methods used in the formation of creativity in young people.

**Аннотация:** В данной статье дана обширная информация о педагогических аспектах формирования формы творчества у учащихся, о роли и роли педагогов в формировании формы творчества у учащихся, а также о различных методах и методах, применяемых при формировании творчества у учащихся. молодежь.

**Kalit so'zlar:** ijodkorlik qobiliyati, metoda va vositalar, samarali fikrlash shakli, pedagogik ijodkorlik, yoshlarning ijodkorlik shakllari.

**Key words:** creativity, methods and tools, effective way of thinking, pedagogical creativity, forms of youth creativity.

**Ключевые слова:** творчество, методы и средства, эффективное мышление, педагогическое творчество, формы творчества молодежи.

Ijodkorlik o'rganishning muhim jihatni hisoblanadi. Ijodkorlik tufayli o'quvchi o'rganishga ijobiy munosabatda bo'ladi va uning o'rganishi yanada qiziqarli bo'ladi. Ijodkorlik sabab o'quvchi passiv ma'lumotni mahsulotga aylantirish orqali faollashtiradi. Yoshlikdan egallangan ijodkorlik tufayli insonlar kundalik hayotidagi muammolarni osonlikcha hal qila oladilar va balog'at yoshida samaraliroq harakat etuvchi darajasida bo'lishadi. Bu ta'limning asosiy maqsadlaridan biri: o'quvchilarni kelajak hayoti uchun yaxshi jihozlash va ularni samarali fuqarolar qilib tarbiyalash. Shu sababli, ayni vaqtida respublika o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi, bu borada faol qo'llaniladigan shakl, metov da vositalar hamda ularning ahamiyatiga e'tibor berilmoqda. O'quvchilarga samarali fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Suqrotdan to hozirgi kungacha ta'lim sohasida katta o'zgarishlar ro'y bergan bo'lsa-da, o'quvchilarga

fikrlash qobiliyatini berishga intilish har doim ta'limning o'zagidan joy olgan. Ijodkorlik oddiy ta'rifga ega bo'lgan tushuncha emas. Ijodkorlik - bu shaxsnинг asl mahsulot yoki yechim topish istagi. Istak va tasavvur hissi ijodkorlikning asosiy so'zlaridir. Sternberg va Lubart (1998) fikrlariga ko'ra, faqat ijodkorlik uchun o'ziga xoslik yetarli emas. Torrance (1988) esa ijodkorlikni quyidagicha ta'riflagan: "Qiyinchiliklar, muammolar, ma'lumotlardagi bo'shliqlar, yetishmayotgan elementlar, qandaydir qiyshiq narsalarni sezish jarayoni: bu kamchiliklar haqida taxmin qilish va gipotezalarni shakllantirish; bu taxmin va gipotezalarni baholash va tekshirish; ehtimol ularni qayta ko'rib chiqish va qayta sinovdan o'tkazish va nihoyat natijalarni e'lon qilish". Hozirgi vaqtda maktabdagi har bir ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilarни hayotda muvaffaqiyatli shaxs bo'lishga tayyorlashni maqsad qilgan va XXI asr ko'nikmalari bilan ta'minlovchi yangi vazifani bajaradi. O'quvchilarning ijodkoqlik qobiliyatlarini rivojlantirish va bunda foydalilaniladigan metod va vositalar mavzusi ham bundan mustasno emasdir. O'quvchilarning ijodkoqlik qobiliyatlarini rivojlantirish va bunda foydalilaniladigan metod va vositalardan o'quvchilarning turli sharoitlarga moslashish, jamiyatni hurmat qilish, g'oyalarga bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lish intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishi ham kutiladi. Ma'lumki, XXI asrdagi muhim ko'nikmalar o'quv faoliyatida kuchaytirilishi kerak bo'lgan maxsus ko'nikmalarni o'z ichiga oladi, ya'ni tanqidiy fikrlash va ijodiy qibiliyatlar, muammolarni hal qilish, metabillash, muloqot qobiliyatları, hamkorlik, innovatsiyalar, ijodkorlik va axborot savodxonligi kabi yuqori darajadagi fikrlash qibiliyatlaridir.

Pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri barcha o'quvchilarning ijodiy faoliyati har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Shu bilan bir qatorda muayyan sohalarda chuqur qiziqishlarini, intilishi va qobiliyatini namoyon qilayotgan o'quvchilarni aniqlash, ularga bundan keyingi rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish lozim. Buning uchun esa maktab yoshidagi o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu o'rinda o'quvchilarning ijodkorlik qibiliyatlarini rivojlantirishda foydalilaniladigan shakl, metod va vositalarning ahamiyatining o'rnini va darajasini oshiradi. Bu borada o'qituvchining sa'yharakatlari ham juda ahamiyatli sanaladi. Chunki o'qituvchi o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir innovatsion faoliyatga tayyorlashi, o'qituvchi va o'quvchilar munosabatida hamkorlik faoliyatini vujudga keltirishi, ijodiy faoliyatni rivojlantirishda bilishga doir innovatsion texnologiyalardan, zamonaviy metodlardan, eng ilg'or natijakor shakl va vositalardan foydalaniishi o'quvchilarning ijodkorlik qibiliyatlarini rivojlantirishda eng samara beruvchi amaliy ish hisoblanadi.

Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ta'limning bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan motivatsion-qiziqarli tomonlariga ham ko'proq e'tibor berilishi lozim. O'quvchilar bilan olib boriladigan ishlarning xarakterli xususiyati ular psixikasining zaif tomonlariga sustlik bilan moslashish emas, balki o'quvchilar maksimal darajada faollashishi uchun ularni aqliy rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatish

tamoyili bo'lmog'i kerak. Tarbiyachi va o'qituvchilar ayrim bolalar qobiliyati o'rtacha ekanligi yoki qobiliyatsizligi va hatto mukammal emasligi haqida paydo bo'lgan tasavvurni sezdirmasliklari lozim. Bunday o'quvchilar o'zlari tobora tezlashib va murakkablashib borayotgan ta'lif jarayoniga asta-sekinlik bilan moslashib boradilar. jodkorlikda o'quv natijalarini baholashga yondashuv o'zgacha. Tashqi berilgan natijalarga erishilganlik darajasi emas, balki ko'pincha undan chetga chiqishlar tekshiriladi. Ijodkorlikni baholashda o'quvchilar ta'lifi natijalarining asosiy parametri- standartlarning minimum talablariga mos kelishi emas balki o'quvchining shaxsan ta'lifi o'sish darajasidir.

Bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishni bolalikdan boshlash tavsiya etiladi. Deyarli har doim (hatto ba'zan ongsiz ravishda) shaxs yaratishga intiladi, shuning uchun original echimlar va yangi g'oyalarni izlash shaxsiy o'sish va o'z-o'zini anglashning asosiy shartlaridan biridir. Har bir inson ajoyib ijodiy salohiyatga ega va agar erta bolalikda uning namoyishi uchun shart-sharoit yaratilsa, qobiliyatlar rivojlanishi ehtimoli ancha yuqori bo'ladi. Bu, albatta, kelajakdagi faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. o'quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirish turli-tuman uslublar orqali amalga oshirish mumkinligi dasturlarda belgilangan. Ammo ayrim holatlarda umumiyligi o'rta ta'lif maktablaridagi tadqiqot doirasidagi mavjud ahvol o'rganilganda, muktab o'qituvchilari har doim ham mazkur metodlardan to'laqonli foydalanmayotganiga guvoh bo'lish mumkin. Ilg'or o'qituvchilar o'zlarining o'quv-uslubiy ishlarida zamonaviy metodlar orqali o'quvchilarda ijodiy faollikni, ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga harakat qilishadi, biroq ularning harakatlarida har doim ham yetarlicha o'quvchi shaxsini ijtimoiylashtirishga, unda erkin fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga, qo'yilgan masala yechimini ijodiy topishga undash motivi kuzatilmaydi. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda foydalaniladigan an'anaviy hamda zamonaviy shakl, metod va vositalar bilish metodlari bilan qiyoslanganda o'ziga xos xususiyat namoyon bo'ladi. Bu shundan iboratki, o'qitish jarayonida yangi ilmiy haqiqatni kashf qilish emas, balki olgan bilimlarini ijodiy o'zlashtirish vazifasi hal qilinadi. O'qitish davomida yangi bilimlarni egallash uchun umumiyligi bilishga xarakterli bo'lgan sinab ko'rish va xato qilishni deyarli mustasno etadigan ancha «yengillashtirilgan» sharoitlar mavjuddir. Shuning uchun ham o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida qo'llaniladigan shakl, metod va vositalar bilish operatsiyalari bilan qo'shib olib boriladigan o'quv jarayoni sharoitlari uchun moslashtirilishi foya uchun xizmat qiladi. Hamda ular o'quvchilarning yosh xususiyatiga bevosita holda bog'liq bo'ladi. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda foydalaniladigan shakl, metod va vositalarning o'ziga xos xususiyati, amaliy jarayondagi ahamiyati mana shunda ham namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytish mumkunki, O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish masalasi hamisha ahamiyatli bo'lgani singari bu jrayonlarda foydalaniladigan shakl, metod va vositalar ham doimiy ravishda o'z ahamiyatiga

egadir. Maktab bosqichidagi ta'lim o'quvchilar bilim olishining poydevori hisoblanar ekan, joiz bo'lsa, mazkur jarayonlarda ilk bilim olish davrlaridayoq o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan, o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy faoliyatni yanada takomillashtirish lozimligi bugungi kunning kun tartibidagi muammo bo'lishi darkor. Zero, ilk bilim olish davrlarida o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy faoliyatini takomillashtirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish, ta'limni samarali tashkil etishda darslarni noan'anaviy tarzda o'tkazish, darslarda innovatsion metodlardan foydalanish, bugungi ta'lim tizimlarida faol bo'lgan eng ilg'or shakl, metod va vositalarga murojaat etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'quvchilarning ijodkolrik qobiliyatlarini rivojlantirish, o'quvchilarida ijodiy faoliyatni yanada takomil etish ularni har tomonlama yetuk bo'lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boltayeva SH. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish. // Xalq ta'limi, 2004, № 3.-34-34 betlar.
1. 2.Karimova V, Nishonova Z. Mustaqil ijodiy fikrlash va shaxsning hissiy, irodaviy va intellektual hislatlari orasidagi bog'lanish // J. Xalq ta'limi, 2001. № 3-6, 64-69- b.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Qarshi.: Nasaf, 200. – 80b.
3. Egamberdiyev, O. A. O., Turdaliyev, A. Y. O., & Maxamadjonov, J. Z. O. (2021). Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari. Science and Education, 2(11), 985-991.
4. Zarnigor, R. A. Q., Egamberdiyev, O. A. O. G. L., & Sotvoldiyeva, O. M. R. Q. (2021). Pedagogik kompetentlikning: nazariy va amaliy tahlili. Science and Education, 2(9), 309-314.
5. Egamberdiyev, O. A. O., Sotvoldiyeva, O. M. Q., & Turdaliyev, A. Y. O. (2021). PEDAGOGIK MAHORATNING MUAMMOLI O'ZLASHTIRISH YO'LLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 535-542.
6. Yusufovich, A. A., & O'G'Li, E. O. A. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOIK ASOSLARI. Science and innovation, 1(B3), 40-46.
7. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O 'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT TARIXI MASALALARI. Journal of new century innovations, 14(3), 33-36.
8. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O'QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGGATISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Journal of new century innovations, 4(1), 52-59.
9. Alisher o'g'li, Y. O. (2022). IJTIMOIY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. PEDAGOGS jurnali, 18(1), 220-225.
10. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME6 ISSUE-5 (30-May)**

TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(7).

11. Tojimamatov, J., & Egamberdiyev, O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON.
12. Egamberdiyev, O., Kholdarova, Z., & Khusanova, M. (2022). THE ORDER OF THE APPEARANCE OF THE PEOPLE'S DIPLOMACY OF THE GREAT SILK ROAD COUNTRIES.
13. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). NEED TO FORM CREATIVE COMPETENCE IN EDUCATORS. Educational Research in Universal Sciences, 1(3), 162-165.
14. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Educational Research in Universal Sciences, 1(3), 166-169.
15. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). DIFFERENT APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH. Educational Research in Universal Sciences, 1(3), 158-161.
16. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 63-65.
17. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 63-65.
18. Iqboljon O'g'li, T. J., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON. PEDAGOGS jurnali, 9(3), 4-7.
19. Alisher o'g'li, E. O. (2022). Issues of Retraining and Professional Development of Pedagogical Personnel. The Peerian Journal, 5, 192-194.
20. Yusufovich, A. A., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(6), 1157-1161.
21. Alisher o'g'li, E. O., & Zokirjon o'g'li, M. J. (2022). The Role of Psychology in the Treatment of Heart Failure in Humans. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 5, 500-502.
22. Ахмедов, А., Эгамбердиев, А., & Сотволдиева, О. (2022). The role of pedagogical technologies in improving the quality of education. Zamonaliv innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 59-60.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH  
VOLUME6 ISSUE-5 (30-May)**

---

23. Alisher o'g'li, Y. O. (2022). IJTIMOIY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. PEDAGOGS jurnali, 18(1), 220-225.
24. Yusufovich, A. A. (2022). PEDAGOGICAL ASPECTS OF FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. Science and Innovation, 1(4), 136-138.
25. Zokirjon o'g'li, M. J. (2022). PROFESSIONALISM AS A GENERALIZED TYPICAL MODEL OF A PROFESSIONAL IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. Journal of new century innovations, 11(1), 186-189.